



Vebsayt: <https://involta.uz/>

ILM-FAN VA TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR

Yuldosheva Nozik Mirzo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyot fakulteti, 2-
ingliz tili 2- kurs talabasi

Iskandarova Diyora Ilhom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyot 2-fakulteti

Qodirova Dilnoza Xoliq qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Media va Kommunikatsiya fakulteti 1-
kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va ularning ilm-fan, ta'lim va boshqa bir qator sohalardagi o'рни va ahamiyatiga bag'ishlanadi. Shuningdek, mamlakatimizda zamonaviy innovatsiyani rivojlantirish yo'lidagi islohotlar, muammo va yechimlar to'g'risida ham so'z boradi.

Kalit soʻzlar: innovatsiya, samaradorlik, innovatsion kombinatsiyalar, innovatsion taʼlim texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar, Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlar, masofaviy taʼlimdagi innovatsiyalar.

INNOVATIVE APPROACHES, SUGGESTIONS AND SOLUTIONS IN EDUCATION AND SCIENCE

ABSTRACT

This article is dedicated to one of the most pressing issues of today, modern innovative technologies and their role and importance in science, education and another several fields. It is also provided with reforms, problems and solutions of the development of modern innovation in our country.

Keywords: innovation, efficiency, innovative educational technologies, pedagogical innovations, reforms in Uzbekistan, innovations in distance learning.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda taʼlim sohasi tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga oʻzining aks taʼsirini koʻrsatadi. Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtmoqdamiz. Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Buni biz yangilanayotgan Oʻzbekistonimizdagi barcha sohalarda koʻrishimiz mumkin. Innovatsiya soʻzining kelib chiqishi va maʼnosiga razm soladigan boʻlsak “Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilanish” (yoki “oʻzgarish”), “in” qoʻshimchasi esa lotinchadan “yoʻnalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” koʻrinishida tarjima qilsak – “oʻzgarishlar yoʻnalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi boʻlib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boʻldi.¹

¹ <https://hozir.org/innovatsion-faoliyatga-doir-refleksiya-turlari.html>

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi. Lekin ko‘pchilik uni ”kashfiyot” termini bilan chalkashtirib yuboradi. Innovatsiya so‘zining ma’no mazmunini aniqroq anglab yetsak kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak, degan xulosaga kelamiz.²

Haqiqatdan ham ilgari “innovatsiya” so‘zini unchalik ko‘p eshitmas edik. Nazarimizda, bu so‘z xuddi o‘zlashgan so‘zdek tuyular edi. Bugungi kunda esa bu so‘zga tez-tez duch kelamiz va hatto o‘zimiz ham ahyon-ahyonda ishlatib qolamiz. Chunki bugun barcha sohani innovatsiya tushunchasidan ayro tushunib bo‘lmaydi.³Bularning ichida yaqqol ko‘zga tashlangani fan-ta’lim bo‘lsa ajab emas. Chunki ta’lim tizimi so‘nggi 5 yil ichida to‘la texnika va texnologiya bilan ta’minlandi. Har bir ta’lim muassasasi ijtimoiy tarmoqda o‘z saytni yaratib, to‘liq ishga tushirdi. Shu bilan bir qatorda. xorij mamlakatlarida joriy qilingan online baholash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Endi xoh o‘quvchi bo‘lsin, xoh talaba uyga berilgan topshiriqni bajarib online maxsus dastur orqali yuklaydi va o‘ziga qo‘yilgan baholarni ham o‘sha dastur orqali kuzatib boradi. Bu dasturlarning qulayligi shundaki, nafaqat topshiriq va baholanish jarayonlarini bilish, balki davomat, dars jadvali, va o‘ziga kerak bo‘lgan adabiyot, o‘quv qo‘llanmalari ham xabardor bo‘lib turadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

² <https://www.terabayt.uz/uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>

³ <https://fayllar.org/innovatsiya-sozi-kop-yangraydigan-bolib-qoldi-uni-elektron-va.html>

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeligiga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlardir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.
2. O'qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo'llash. Bunday usullar bo'lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quvchilarni faol o'quv va amaliy faoliyatga jalb etishga, o'quv jarayonida tashabbus ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quv dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.
3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U ta'limning yangi shakllari va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.⁴

Bu imkoniyatlarning tub zahirida yurtimizda innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi va tobora rivojlanib borayotganligi yotadi. Eng quvonarlisi shundaki, bugun innovatsion texnologiyalar barcha soha bilan uyg'unlikda rivojlanish bosqichida ketmoqda. Aniqroq qilib aytganda, innovatsiya fan ta'lim sohasidagi faoliyatini necha marotaba oshishiga xizmat qilmoqda.

Tez rivojlanayotgan, ilm-fan sohasida tobora yaxshilanayotgan davlat dunyodagi eng taraqqiy etgan davlatlar ro'yxatida yetakchilik qiladi. Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston esa mana shunday katta yo'l boshida. To'g'ri, har bir ishni tizimli yo'lga qo'yishda kamchilik va muammolarga duch kelib, uni bartaraf etilsagina chin maqsadga erishish mumkin. Shu boisdan ham

⁴ <https://goaravetisyan.ru/uz/sovremennye-innovacionnye-tehnologii-centr-podgotovki-pedagogov-k/>

Zamonaviy ta'lim makonida innovatsion texnologiyalar konsepsiyasi. 2021.

ta'lim tizimida joriy qilingan dasturda ba'zi bir uzilishlar bor, lekin u ham o'z vaqtida bartaraf etib borilmoqda.

O'zni kelganda aytish joizki, fan ta'lim tizimida innovatsiya tushunchasi haqida so'z yuritganda "pedagogik innovatsiya"ga ham to'xtalib o'tish joiz. Odatda, "pedagogik innovatsiya" tushunchasi tarbiya va ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Pedagogik innovatsion amaliyotning yetakchi jihatlari maktablar bazasida yangi turdagi maktablar yaratishdir. Ta'lim muassasalari, o'qitishning yangi usullari va texnologiyalari, ta'lim mazmunini yangilash, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning gumanistik tabiati hisoblanadi. N.R.Yusufbekovanning yozishicha "Innovatsiyalarni yaratish jarayonlari, ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan tushunilishi va o'qitish va tarbiyalash amaliyotida qo'llanishi kerak" deyiladi. Ko'rinib turibdiki, innovatsiya qanday talqin qilinmasin, baribir sof mohiyati rivojlanishga va rivojlantirishga asoslanib qolaveradi. Shu bois ham yurtboshimiz Innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqdalar.⁵

Prezidentimiz tashabbusi bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgani ham bu sohaning yurtimizda yanada rivoj topishidan dalolat beradi. Quvonarlisi, ushbu vazirlikning asosiy ish-faoliyati yosh va kreativ fikrleydigan yigit va qizlar boshchiligida yuritilyapti. Shuningdek, o'z g'oyasi va tashabbusi bilan chiqayotgan yoshlar ham aynan Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. U yerda tashkil etilgan sog'lom raqobat muhiti ochig'i barcha iqtidorli yoshni o'ziga jalb qiladi.

Davlatimiz rahbari ham nutqlarining birida "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz.

⁵ N.R.Yusufbekova. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2021.

Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak” degan edilar.⁶

Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari sabab bugun yurtimizda innovatsion texnologiyalar, innovatsion g‘oyalar va innovatsion ishlanmalar ilm-fan, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, madaniyat, iqtisod, siyosat va shu kabi ko‘plab sohalarda, eng asosiysi, har birimizning hayotimizda keng tadbiq etilmoqda. Bu qulayliklarning negizida esa albatta xalq manfaati yotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Nima bo‘lmasin va u qanday talqin etilmasin hammasi xalq yoshlar va kelajak avlod uchun ekanligi aniq va ravshan. Shunday ekan biz yoshlar ham davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilgan mana shunday sharoitdan oqilona foydalanib o‘z iqtidorimizni namoyon etaylik balki bizning iqtidorimiz ortidan o‘ylagan g‘oyamiz innovatsion ruhda bo‘lib yangilanayotgan O‘zbekistonimizning ertangi istiqboliga xizmat qilsa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://hozir.org/innovatsion-faoliyatga-doir-refleksiya-turlari.html>
2. <https://www.terabayt.uz/uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>
3. <https://fayllar.org/innovatsiya-sozi-kop-yangraydigan-bolib-qoldi-uni-elektron-va.html>
4. <https://goaravetisyan.ru/uz/sovremennye-innovacionnye-tehnologii-centr-podgotovki-pedagogov-k/>
5. N.R.Yusufbekova. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2021.
6. E. Parmanov, Z.A. Shodmonqulov. Zamonaviy innovatsion texnologiya orqali ta’limni boshqarishning ahamiyati.

⁶ A. E. Parmanov, Z.A. Shodmonqulov. Zamonaviy innovatsion texnologiya orqali ta’limni boshqarishning ahamiyati.